



OYBEK ABDIMUROTOV

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR





OYBEK ABDIMUROTOV

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR



91
A-14

ABDIMUROTOV OYBEK URALOVICH

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR

- 12719 -

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«MALIK PRINT CO»
2021

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 91(076.1)
KBK 26.8ya7
A 14

Abdimurotov O.U.

Geografiyadan masala va mashqlar [Matn]: o'quv qo'llanma /
O.U. Abdimurotov. – Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2021. - 200 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada bo'lajak geografiya o'qituvchilarga amaliy mashg'ulotlarni bajarish, geografik masala va mashqlarni yechish usullari, xarita va raqamli ma'lumotlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilishga doir ma'lumotlar berilgan.

Mas'ul muharrir:

M.M.Mahmudov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası g.f.f.d. (PhD);

Taqrizchilar:

F.T.Rajabov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası mudiri, g.f.f.d. (PhD);

N.R.Alimqulov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-7653-1-3

SO'Z BOSHI

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda Respublikamiz davlat siyosatida ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa pedagoglar zimmasiga mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdek ma'suliyatni yanada oshiradi.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlatish yoki yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash uchun jahon andozalari darajasida fan va texnika hamda ilg'or tajriba va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, o'z sohasini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan puxta egallagan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Geografik dunyoqarash ilmiy dunyoqarashning muhim bir qismi bo'lib, inson tafakkurining shakllanishida juda katta o'rin tutadi. Geografik bilimlarni teran anglash barobarida qonuniyatlar va ularning mohiyati tobora oydinlasha boradi. Fanga doir mashqlar bajarish olingan bilimlarni mustahkamlaydi, dunyoqarash va inson fikrlashini o'stiradi, shuningdek, yangi bilimlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Geografiya darslarida masalalar yechish ta'lim samaradorligi va talabalarning faolligini oshirishga, uni o'ylanishga, izlanishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi.

BIRINCHI BOB. TABIIY GEOGRAFIYAGA OID MASALA VA MASHQLAR YECHISH

1-mavzu: KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Fanning maqsad va vazifalari.
2. Boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Asosiy geografik kattaliklar.

Fanning maqsad va vazifalari.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim o'quvchilarga borliqni yaxlit sistema sifatida qabul qilishga o'rgatishi, xodisa va voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni, xayotning mazmun-mohiyatini teran anglashga, xayotda o'z o'rmini topishga yordam berishi zarur. Axborot oqimi tezlashib borayotgan bugungi davrda pedagog zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'libgina o'quvchilarning nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishi amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishi hamda rivojlantirishi mumkin.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohatlarni yuksak bosqichga ko'tarish muhim vazifamiz va muqaddas burchimizdir" deb takidlaganidek, kelajagimiz poydevori bo'lgan iqtidorli yoshlarimiz bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish uchun o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv mashg'ulotlarini olib borish lozim. O'quv mashg'ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlari, respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, umumta'lim maktablari va Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiyydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Shu sababli geografiya fanlari, jumladan, Geografiyadan masala va mashqlar fanini o'qitishda ham yuqoridagi tamoyillarga amal qilinadi. Bu esa vatanimiz taraqqiyoti

uchun kafolatlangan iqtidorli yoshlarni tarbiyalashga va yetuk mutaxassis-kadrlar yetkazib berishga imkon beradi.

Geografiyadan masala va mashqlar fani talabalarning geografiya darslarida olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini shakllantiradi va amaliy ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Geografiya ta'limi juda ko'p amaliy ishlarni, masala va mashqlarni bajarishni talab etganligi uchun ham bu fan eng muhim fanlardan biri hisoblanadi.

Geografiyadan masala va mashqlar fanining maqsadi – talablarga geografiya fanini o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlar, ularning turlari va xususiyatlari, masallarni yechish usullari, mashqlarni bajarish yo'llari haqida bilim berish hamda talablarda turli mazmundagi xarita va globus bilan ishlash, kartografik malakalarni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash, geografik bilimlarni o'zlashtirishda foydalaniladigan asbob-uskunalaridan foydalanish, geografiyaga xos ko'nikma va malakalar (ufq tomonlarini aniqlash, joyda oriyentirlash, plan olish, azimutni topish, koordinatani va vaqt mintaqalarini aniqlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish va hokazo) ni hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarga geografik masala va mashqlarning turlari, masala va mashqlardan geografiya darslarida foydalanish, darslikdagi matn, jadval, rasm va amaliy topshiriqlar bilan ishlash, geografik xaritalarni o'qish va ular bilan ishlash qobiliyatini yaxshilash, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilish, dars, darsdan tashqari ishlar, o'quv sayohati va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ishlanmalarini loyihalash, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish, talabalarning bilish qobiliyatlari (kuzatuvchanlik, sinchkovlik, mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, mustaqil qaror qabul qilish va bilimlarni hayotga tadbiq etish) ni rivojlantirish, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali usullarini qo'llash yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Fanning yuqoridagi maqsad va vazifalari geografiya fanlarini hayot bilan yanada yaxshiroq bog'laydi.

Talabalar geografiyadan masala va mashqlarni yechish jarayonida bir qancha amaliy ishlarni (joyda oriyentirlash, plan olish, ob-havo va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish, statistik ma'lumotlar va raqamlar bilan ishlash va hokazo) ham bajarish yo'llarini ham